

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 18 (67235)
2019-yil 6-may

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092



9-MAY
XOTIRA VA
QADRLASH KUNI

*E'tibor va
g'amxo'rlik –
insoniy burch*

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
42-umumta'lim maktabining 2-«B» sinf o'quvchilari
Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab «Ochiq dars» o'tkazishdi.

O'ZBEK YOSHLARINING YANA BIR G'ALABASI



20-27-aprel kunlari
Rossiyaning Sankt-
Peterburg shahrida
bo'lib o'tgan kimyo
fani bo'yicha
53-Xalqaro
Mendeleyev
olimpiadasidan
yoshlarimiz
mamlakatimizga 1 oltin,
3 kumush va 1 bronza
medal bilan qaytdi.



shiriqqa ko'ra, biz to'pchilar hujum qilayotgan dushman samolyotlarini yo'q qilishimiz kerak edi.

Har kim jangovar o'rni egalladi. Ko'p o'tmay, to'plarimiz dushman samolyotlariga zarba bera boshladi. Jang paytida men dushmanning qiruvchi samolyotini urib tushirdim. Bu mening jangdagi birinchi katta muvaffaqiyatim

gizga munosib farzand bo'lib ulg'ayaverim...

Ayni vaqtda bu qahramon otaxonimiz G'allaorol tumanidagi Qizilqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qiladi. Ko'ksini «Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 70 yilligi» esdalik yubiley medali bezab turibdi. To'y va ma'rakalarning o'rida o'tirib yoshlardan dono maslahatlarini ayamaydi.

tupdan ziyod terak, tol va shu kabi manzarali daraxt ko'chatlari ko'kka bo'y cho'zmoqda. Barpo etilgan bog'-rog'lar va yo'llar chetidagi anvoyi gul-larni ko'rib ko'zingiz quvnaydi. Ketmonchi mahallasida bir nechta sport maydonchalari bunyod etildi. U yerda turli sport musobaqalarini o'tkazishga saxovatpesha fermerlar homiylik qilib, urush va

98 YOSHLI BOBONING HIYOYASI

Otaboy bobo hovlidagi toklarning ortiqcha shoxlarini kesib, tagini yumshatayotgan edi. Shu payt darvozadan o'quvchilar kirib kelishdi.

– Kelinglar bolalarim, – dedi u ishdan bosh ko'tarib. – Biz maktab o'quvchilari-miz, – dedi yoshlar yetakchisi. – Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari haqida albom tayyorlayapmiz. Siz ham jang xotiralaringizdan gapirib bersangiz.

Otaboy bobo o'quvchilarni ichkariga taklif qildi va ularga o'sha suronli kunlar haqida hikoya qila boshladi.

– Varshava ostonasida-gi jang shiddatli tus olgan kunlarning biri edi. Ertalab gumburlagan to'p ovozidan cho'chib uyg'andim. Nogahon, komandirning «Pod'yom!» degan buyrug'i eshitildi. Ham-mamiz qo'limizga qurollarni olib, jang boshlanishidan oldin yig'iladigan yerto'laga kirdik. Tashqarida bombalar tinimsiz portlar, yerto'laning atrofidan shuvillab tuproq to'kilar, ustun-ga osig'liq koteloklar (ovqat yeydigan idishlarimiz) esa bir-biriga urilib, jaranglardi.

Komandir vaziyatni tushun-tirib, aniq topshiriq berdi. Top-

edi. Keyinchalik bu xizmatim uchun orden bilan mukofot-landim.

Visla daryosi bo'yidagi jang ham sira yodimdan chiqmaydi. Bizga juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'prikn mudofaa qilish vazifasi topshirilgan edi. Chunki dushman uni izdan chiqarishga qattiq harakat qilardi...

Otaboy bobo bir muddat jim qoldi. Birozdan so'ng esa o'quvchilarga bir-bir qarab chiqib, shunday dedi:

– Urushning nomi o'chsin bolalarim, har doim tinchlik bo'lsin. O'qinglar, ota-onan-

Shu kuni uchrashuvda otaxon G'allaorol tumanida-gi 24-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan Arslon G'ay-bullayev, Shahina O'rolova, Sarvar Sanaqulov va Diyor Islomovning savollariga ba-jonidil javob berdi.

Darvoqe, Qizilqo'rg'on ma-hallasida obodonlashtirish, yo'llarini sozlash, muhtoj oila-larga doimiy mehr-muruvvat ko'rsatish kabi savob ishlarni qilish qishloq aholisi o'rtasi-da yaxshi an'anaga aylanib qolgan. Bu yilgi umumxalq hasharida mehnatkashlar tomonidan o'tkazilgan 12000

mehnat faxriylaridan ham o'z yordamlarini ayashmaypti.

El ardog'idagi otaxon Otaboy bobo Omonov hozir 98 yoshda, sakkiz nafar o'g'il-qizi, oltmish besh nafar nevara va chevaralari ardog'ida keksalik gashtini surmoqda. – Umringizga umr qo'shilsin, bobojon, – deb qolamiz bugungi tinch, osuda hayotimiz sababchilaridan biri bo'lgan otaxoniga minnatdor avlodlar nomidan samimiy niyat bildirib.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

Bolalar uchun bir-biridan qiziqarli bo'lgan «Shum bolaning nabivalari», «Kichkina demang bizni», «Robinzonlar», «Qorxat», «Tushovli toy» kabi ko'plab kitoblarni muallifi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Nosir Fozilov hayot bo'lganida, ayni kunlarda 90 yoshni qarshilagan bo'lar edi.

A DABIY DO'STLIK

Ijodning sermahsul, mashaqqatli yo'lini bosib o'tgan Nosir bobo bolajonlar qatorida kattalar uchun ham bir qancha ajoyib asarlar yaratgan. Ayniqsa, qar-dosh qozoq adiblarining sara asarlaridan qilgan yuzlab tarjimalari ikki xalq o'rtasida mustahkam adabiy ko'prikkaga aylangan.

Mazkur yil mamlaka-timizda Qozog'iston yili deb e'lon qilinishi ko'plab soha vakillari qatori ijodkorlar uchun ham quvonarli hodisalardan biri bo'ldi.

Kuni kecha Nosir Fozilov tavalludining 90 yilligi munosabati bilan yozuvchi dunyoga kelgan Turkiston shahrida katta bayram tadbirlari bo'lib o'tdi. Unga mezbonlik qilgan qozog'istonlik ijodkorlar hamda O'zbekistondan tashrif buyurgan yozuvchi va shoirlar adib hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ibratomuz voqealarni yodga olib, ijodkor ruhini shod etdilar.

Qozog'istonlik taniqli yozuvchi va davlat arbobi Sobit Do'sanov, O'zbekiston xalq shoiri To'lan Nizom, Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Murodboy Nizanov va adibning rafiqasi Muborak Fozilovaning yozuvchi haqidagi iliq xotiralarni davra ishtirokchilari maroq bilan tinglashdi.

Anjuman davomida mehmonlar

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov ta'lim olgan maktabda ham bo'lib, Nosir Fozilovning bu



maskandagi yosh muxlis-lari bilan ijodiy muloqotda bo'ldilar.

Tadbir so'ngida eski Iqon qish-log'idagi O'zbekiston xalq shoiri, mohir tarjimon, buyuk so'z zargari Mirtemir muzeyiga qilingan sayohat qalbmizni faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldirdi.

Ijodkor ahli orasida yaxshi asar yozuvchi hayotining davomi, degan purma'no hikmat bor. Mamlakatimizda kitob mutolaasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgan ayni chog'da, bunday tadbirlarning o'tkazilishi, yuqoridagi hikmatlar naqadar hayotiy ekanligini yana bir bor ta'kidlagandek bo'ldi.

Yusuf ABDULLAYEV

SHARAF LENTASI

Yurtimizda 9-may umumxalq bayrami - Xotira va qadrlash kunini nishonlashga qizg'in hozirlik ko'rilayotganiga, bir-biridan ajoyib loyiha va aksiyalar o'tkazilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.



O'zbekiston yoshlar ittifoqi faollari tomonidan milliy bayrog'imiz ramzi tushirilgan «Sharaf lentasi»ni tarqatish aksiyasi barcha yurtdoshlarimiz qalbida faxr, iftixor tuyg'ularini uyg'otmoqda. Poytaxtimizning Xalqlar do'stligi majmuasi may-donida tadbir doirasida bekatta to'xtagan jamoat transportlari hamda avtoulovlarga Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan

maxsus stikerlar yopishtirilmog'da. Yo'lovchilarga esa bejirim tasmalar taqdim etilmog'da. Bunday aksiyalarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad tinch, osoyishta, farovon hayotimiz uchun kurashgan, aziz jonini fido qilgan ota-bobolarimiz xotirasiga ehtirom ko'rsatishdir.

«Sharaf lentasi»ni Siz ham ko'ksingizga taqing. U qalbingizga g'urur tuyg'usini bag'ishlashi, shubhasiz.

O'z muxbirimiz

TANLOV G'OLIBI BO'LDIM

Ustoz-shoirimiz Muhammad Yusufning 65 yilligi munosabati bilan Respublika Yoshlar Markazi qoshidagi «Muhammad Yusuf izdoshlari» ijodkor-yoshlar klubi tomonidan tanlov e'lon qilingandi.

Tanlovning shartlari sevimli shoirimiz she'rlaridan yod olish, ifodali o'qib berishdan iborat edi. She'rni ifodali o'qiganim uchun 137 layk ovoz to'plab, tanlov g'olibi bo'ldim. Shu bois Andijonda shoirimizning tavallud ayomiga bag'ishlab o'tkazilgan mushoirada ishtirok etib, Respublika Yoshlar markazining maxsus diplom va ustoz-shoirimizning she'riy kitobi bilan taqdirlandim. Shuningdek, respublikamizning taniqli ijodkorlari, Tojikiston va Afg'onistondan mehmon bo'lib kelgan shoir-u yozuvchilar bilan birgalikda Muhammad Yusuf qabrini ziyorat qildik, xonadoniga tashrif buyurdik. Shoirming turmush o'rtog'i Nazira as-Salom hamda singilisi Matluba opa xotiralardan so'zlab berishdi. Marhamat tumani hokimi hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 100ga yaqin kitob mehmonlarga tarqatildi.



Muhtaram HASANOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
26-umumta'lim maktabining 9-A sinf o'quvchisi



«ONA JONIM TABIAT» tanloviga QUYOSH SEVGAN VATAN

**Ona tabiat g'aroyibotlarga boy. Bu yilgi erta kelgan bahor
borliqni yashnatdi. Ayvonlardagi «qo'shni»larimiz –
qaldirg'ochlar bilan diyorlashdik.**

Aprel yomg'irlari tinmadi. Bahorgi yomg'irlarda qut-baraka bor, deyishadi. Tabiatning o'zi bebaho ne'mat. Tuproq, suv, havo, Quyosh adoqsiz mo'jiza. So'lim go'shalarni ko'rib, beixtiyor hayrat va quvonchga to'lasiz. Dunyoda shunday tashkilotlar borki, cho'llarni ko'kalamzorlarga aylantirish harakati. Chunki, insoniyat tabiatga muhtoj. Tabiat esa insondek bog'bonga muhtoj. Inson va tabiat o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham o'quvchilarning tabiatga bo'lgan mehrini oshirish maqsadida ayrim mamlakatlarda tabiat qo'ynida maktablar tashkil qilingan. Rus shoiri Aleksandr Voznesenskiy ta'biri bilan aytganda, «Nazarimda, daraxtlar xuddi ohanabodek, hissiy rishtalardek inson qalbiga chirmashadi va ma'naviy hamda biologik quvvatlanish sodir bo'ladi». Demak, tabiat qo'ynidagi maktablar o'quvchilar uchun juda foydali ekan, nega bizda shunday maktablar yo'q? Yoki ochiq havoda darslar tashkillashtirilmaydi? Tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirilmaydi? Maktablarda «Yashil burchaklar yo'q bo'lib ketdi. Bahorda maktab bog'iga o'quvchilar o'z ko'chatlarini ekishmayapti. Tabiatga befarqlik ham shundan boshlanmoqda. Bekorga sevimli shoirimiz Erkin Vohidov: «Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada!» deb ta'kidlamaganlar. Hassos adibimiz Shukurullo esa o'zining «Javohirotni sandig'i» asarida quyoshimizni shunday ta'riflaydi: «Bog'lardagi g'arq pishgan o'rik, shaftolilar mazzasi – quyoshimiz ta'mi. Anvoyi gullar, ariqlar bo'yidagi rayhon va yalpizlar hidi – Quyosh hidi. Marg'ilon atlasining yal-yal ranglari – Quyoshning ranglari». Bu ta'riflarni o'qib quyoshga mehrimiz ortadi, bizning yurt – Quyosh sevgan Vatan, deb yuborasiz.

Tabiatning go'zalligi-yu mo'jizasi ta'riflash odamni quvontiradi. Ammo, dilni siyoh qiladigan holatlar ham borki, ularga ko'z yumib ketolmaysiz. Dunyoda obi hayotimiz bo'lmish, ichimlik suvi tanqisligi borgan sari ortib bormoqda. Tasavvur qiling-a, piyolangizdagi tiniq suvga gard tushsa to'kib yuborasiz, shundaymi? Bilmaysizki, ayni shu paytda qaysidir yurtda jazirama suvsizlikdan qiynalayotgan tengdoshlaringiz bir piyola loyqa suvni oilasi bilan bo'lishib, chanqog'ini qondiryapti. Maysalar ustida, daraxtlar oldida gurullatib chiqindi yoqasiz. Tutuni osmon qadar bo'ylaydi. Xonamiz dimlansa, darrov deraza ochib, havo almashtiramiz. Lekin Yer sayyorasining havosini almashtirib bo'lmaydi. Bu ishini faqatgina daraxtlar uddalaydi. Aytishlaricha, yerga ulkan asteroid tushishi natijasida tabiat aziyat chekkan, Yer yuzining ilk hukmdorlari – dinozavrlar qirilib ketishgan ekan. Bugun esa Yerga asteroid tushishining hojati yo'q, odamlarning o'zlari tabiatga katta zarar yetkazishmoqda. Oddiy misol keltirsam, mahallamizdan katta soy oqib o'tadi. Sharsharasining salqini jonga rohat bahsh etadi. Sokin va bahavo joylar. Ammo, sharsharaning yuqori qismidagi to'g'onga yig'iladigan chiqindilarni ko'rib, dili xufton bo'ladi kishining. Soyning ba'zi joylarini odamlar chiqindixonaga aylantirib yuborishgan. Nega ayrim odamlar bunchalar beparvo, madaniyatsiz bo'lib ketishyapti?!

Shu kunlarda maktabimiz qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagining o'z nomini «Tabiat qo'riqchilari» deb o'zgartirmoqchimiz. Bunga esa yuqoridagi holatlar sabab bo'lmoqda. Kuni kecha to'garak rahbarimiz No-dira opa Abdullayeva boshchiligidagi «Osmon gullari» shiori ostida gullarni tuvaklarga ko'chirdik. Nega aynan «Osmon gullari» nomini olganining sababi shundaki, maktabimizning eng yuqori – to'rtinchi qavatining derazalari oldida gullar yo'q edi. Yangi shior ostidagi tashabbusimiz tufayli bu qavatimiz ham gullarga burkandi. O'quvchilar gullarga ma'sul qilib qo'yilib, kimning guli birinchi bo'lib gullasa, taqdirlanishi aytili.

«Tong yulduzi» gazetasini sevib mutolaa qiluvchi do'stlarim! Sizlarga quyidagi savol bilan yuzlanmoqchiman: «Maktabingizda «Yashil burchak» bormi? Bo'lmasa, sizga bir loyiha taklif qilaman. Uyingizda o'stirayotgan gullaringizdan, parvarish qilayotgan qushlaringizdan, jonivorlaringizdan olib kelib, «Jonli burchak», «Yashil burchak» tashkil qiling. Bu burchaklar o'quvchilar qalbidagi tabiatga mehr uyg'onishiga sabab bo'ladi.

Otabek ORTIQOV,

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
169-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

Gar faollik ko'rsatmasangiz,
Ne naf aql xazinasidan?

SH. RUSTAVELI

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlarini kuzata turib, g'alati suratga ko'zim tushdi. Uning markazida maktab o'quvchilari turibdi. Ular tomonga har yoqdan cho'zilgan qo'llar, «Farrosh uchun», «O'quv qurollari uchun», «Bog'bon uchun», «Fond uchun», «Ta'mirlash ishlari uchun», «Gullar uchun» deb yozib qo'yilgan. Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Chunki nomsiz qoldirilgan qo'llar ham bor... Qiziq, bu suratga maktab o'quvchilarining qanday aloqasi bor?

«YIG'DI-YIG'DI» HAQIDA YIG'ILGAN GAPLAR



«Yig'di-yig'di» haqida yig'ilgan gaplarga Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilafro'z Razzoqova o'z munosabatini bildirdi.

– Bu holat hammadam ham kuzatiladi. Gohida «yig'di-yig'di»laring tugaydimi, deb farzandlarimizni koyiyimiz. Ammo,

o'zim ham o'qituvchiman. Ba'zan shunday holatlar uchun ota-onalar oldida yemagan somsamizga pul to'lashimizga to'g'ri keladi»...

Bu kimlar uchundir shunchaki arziyas chiqim bo'lishi mumkin. Biroq serfarzand oilalar uchun buning aksi bo'lishi turgan gap. O'zim ham maktab davrida ko'p guvoh bo'lganman. Chiqimlarni deb o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida juda ko'p nizolar, kelishmovchiliklar kelib chiqar edi. Hattoki, bir yili, sinfimizdagi o'quvchilardan biri chiqimlar yuzasidan kelib chiqqan nizo tufayli, boshqa maktabga o'tib ketishga majbur bo'lgan. Arzimagan chiqimlar sabab o'quvchilar ham ikki orada sarson bo'lardi. Eng, achinarlisi, ota-onalar va o'qituvchining fikri doim ham bir xil bo'lavermaydi. Bu tushunmovchiliklar kattaroq ko'ngilsizliklarni keltirib chiqarimasliklariga kim kafolat bera oladi?

Chiqimlarning ham nazarimizda, o'z o'rnini bor. Shunday maktablar borki, bu kabi chiqimlar tugul katta muammolar ham ota-ona va o'qituvchilar o'rtasiga sovuqchilik sola olmaydi. Biroq arzimagan narsalarning orqasidan, buning aksi ham kuzatilishi mumkin. Bu kabi chiqimlarni maktablarda kichik tadbirkorlikni, hech bo'lmaganda, maktab bog'ida samarali foydalanishni yo'lga qo'yib ham hal etish mumkin. Shunda hech kim norozi bo'lmaydi. O'quvchilar ham hunar egasi bo'ladi, ham bilimlarini boyitib, tajriba orttiradi.

Mardona ZOKIROVA,
Respublika yosh ijodkorlar Kengashi a'zosi

BILIMI ZO'R MINGNI YIQAR

Har yili qizg'in bahs va munozalarga mavzu bo'ladigan fanlar olimpiadasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Bu olimpiadada shahar bosqichi g'olibi bo'lgan 5-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Hojiakbar Olimov ona tili va adabiyot fani bo'yicha maktab sha'nini himoya qilishga astoydil bel bog'lagandi. U viloyat bosqichida ham birinchi o'rinni egalladi. Hojiakbarning bunday yutuqlarga erishishida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Irodaxon Boltaboyevaning xizmatlari katta.

– O'quvchim ona tili va adabiyot fanini, kitob o'qishni juda yaxshi ko'radi, – deydi Iroda opa. – Test savollariga ham javob topishdan erinmaydi. Ko'p she'r yod oladi. Badiiy matn tuzishga qobiliyati bor. Olgan bilimlarini sinab ko'rish uchun olimpiadalarda faol qatnashadi. Hojiakbarning respublika bosqichida ham faxrli o'rinlarni egallashiga tilakdoshman. Zero, «Bilimi zo'r mingni yiqar», degan ibora bejiz aytilmagan.

Yoqutxon SODIQJONOVA,

Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 22-umumta'lim maktabining 10-«B» sinf o'quvchisi



Ilm ko'paygan sari kishining qalbi nurlanib, jilolanib boradi.

Aziz o'quvchilar, ma'lumki, sizning yoshingizdagi o'g'il-qizlarda turli kasblar, sohalarga qiziqish kuchli bo'ladi. Kimdir rassomlikka qiziqsa, yana kimdir musiqa asboblardan birini chalib, zavqlanadi.

KIM KITOBXON, KIM SAN'ATKOR – BARCHAGA IMKON BISYOR!

Orangizda kitobxonlig-u kompyuter texnologiyalari yo'nalishida o'z iqtidorini namoyish etish orzucidagilar ham talaygina. Quvonarlisi, buning uchun qarshingizda imkonlar bisyor. Bu borada yurtboshimiz tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida

kitob va uyali aloqa vositasining o'quvchilar hayotida tutgan o'rniga bag'ishlangan sahna ko'rinishini namoyish etib, tengdoshlarini munozaraga chorlashdi. Sportchilar esa yutuqlari haqida so'zlash barobarida o'z mahoratlarini

BEKTEMIR TUMANI MAKTABLARIDA

ko'rsatib berishdi. Karatechi qiz Laylo To'xtarova, stol tennisi ishqibozi Shohjahon G'ayratov, o'zbek jang san'ati bo'yicha yutuqlarga erishayotgan Iroda Qodirovani olqishladik. Buni qarangi, maktab kutubxonasida ham ajoyib uchrashuv, mushoiralar o'tkazilayotgan ekan. Ijodkor bolalar shoir Ravshan Isoqqa o'z ijod namunalarini o'qib berib, maslahatlar olishayotganidan quvondik. 9-«B» sinf o'quvchisi Dilnoza Saidova esa fursatdan foydalanib, bizga she'riy mashqlarini ko'rsatdi. Shundan so'ng, «Qani, endi ko'raylik-chi, bu maktabning a'lochi-yu bilimdon o'quvchilari axborot texnologiyalaridan qanchalik to'g'ri foydalanayotgan ekanlar?» deya kompyuter xonasiga kirdik. Barcha sharoitlar yaratilgan xonada, bo'lajak dasturchi-yu, kompyuter bilimdonlari bilan suhbatlashdik.



yo'lga qo'yish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta tashabbus barchamiz uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda, desam ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Toshkent shahar, Bektemir tumanidagi 289-umumta'lim maktabi o'quvchilari ham ta'lim dargohlarida o'tkazilgan ajoyib tadbir orqali mazkur tashabbusda ilgari surilgan yo'nalishlar bo'yicha o'z bilim va iqtidorlarini namoyish etishdi.

Maktabga kirib borishimiz bilan yosh doirachilar, eng avvalo, bizning san'atimizga baho bering, degandek doirani zavq bilan chala ketishdi. Rassomlikka ishtiyoqmand o'quvchilar ijodiy ko'rgazmaga taklif etishdi. Ko'rgazmada ta'lim maskanida faoliyat yuritayotgan «Yosh rassomlar» to'garagining faol a'zolaridan Shoir Soliyeva, Aqida G'aybullayeva, Kim Leonora kabi o'quvchilarning ishlari o'rin olgan ekan. «Tayyorgarliklar avjida, bo'lajak ijodkorlar ham talaygina», deya mazkur tadbir haqidagi iliq fikrlarimizni bildira boshlaganimizda, maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Muharram opa Mirzaboyeva: «O'quvchilarimizning hali bundan-da rang-barang chiqishlari bor», deya bizni faollar zali tomon chorladi. Navbat adabiyot va san'at yo'nalishida ijod qiladigan iste'dod egalariga yetdi. San'atsevarlar



Rang-barang tadbirlarga boy tarzda kechgan kunimiz yangi iste'dodlarni «kashf qilish»ga xizmat qilgan bo'lsa, ajabmas.

Sayyora QODIROVA



SHO'XLIKNING HAM ME'YORI BOR

Qadrli o'quvchilar, tengdoshlaringiz orasida ko'cha-ko'ya, avtobus bekatlarida biror shirinlik yeb, yoki ichimlik ichib, chiqindilarini duch kelgan yerga o'tib ketadigan, jamoat joylarida pista chaqib, atrof-muhit orastaligiga putur yetkazadigan, yoki bo'lmasa, balland ovozda gaplashib, kulib, bir-birlarini turtib-surtib hazillashadigan, ayrim hollarda haqoratli so'zlarni aytib, janjallashib qoladiganlari ham yo'q emas-a?!

Ular bunday xatti-harakatlarini bolalik sho'xliklarida, deya baholash mumkinmi? Aslo yo'q! Chunki o'yinqaroqlikning ham, sho'xlikning ham me'yori, chegarasi bo'ladi. Yuqori-

Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus haqida atroflicha fikrlandildi. Tuman Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Nurjigit



da bayon etilgan holatlarni esa hech ikkilanmay, huquqbuzarlik, deb baholashimiz mumkin. Va bunga, albatta, ma'muriy jazo muqarrar! Ya'ni, atrof-muhitni ifloslantirgani, ekologiyaga ziyon yetkazgani yoki bo'lmasa, atrof-dagilarning finchini buzgani uchun bunday o'g'il-qizlar jarimaga tortilishi, shubhasiz. Xo'sh, bunday tartib-oidalardan barcha boxabarmi?

Kuni kecha poytaxtimizning Bektemir tumanida joylashgan 293-umumta'lim maktabida aynan shunday ezgu-niyatda, ya'ni, «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi 263-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyatini o'quvchilarga yetkazish maqsa-

Abdurahimov yurtimizda yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlari, kasb-hunar sirlarini egallashlari, sport bilan shug'ullanishlari, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun shuncha shart-sharoitlar yaratilganiga qaramay, nazoratsizlik oqibatida ayrim o'smirlarimiz tomonidan huquqbuzarlik holatlari sodir etilayotganini achinarli hol, deb baholadi. Shuningdek, o'quvchilarni yangi tahrirda qabul qilingan mazkur Qonunning 41-, 47-, 137-moddalari bilan tanishtirib, ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik tushunchalariga alohida urg'u berdi. Har ikkalasi ham o'g'il-qizlarning kelgusi hayotiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligini aytib, ogohlikka chorladi. Yoshlik qilibmi, g'o'rlik



dida «Sho'xlikning ham me'yori bor» nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Unda Bektemir tuman Kengashi deputatlari, tuman Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi xodimlari, «Rohat» mahallasi faollari, shuningdek, maktabning yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. Davra suhbatlari tarzida o'tgan mazkur tadbirda mamlakatimiz

qilibmi, bilib-bilmay sodir etilgan huquqbuzarliklarning qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini hayotiy misollar asosida tushuntirib berdi.

Savol-javoblarga, bahs va munozaralarga boy tarzda o'tgan tadbir o'quvchilarning huquqiy bilimlarini boyitishga hissa qo'shgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Feruza JALILOVA

Boshlang'ich sinfda o'qib yurgan paytlarim. Ona tili darsida sinfimiz eshigi taqqillab qoldi. Bizga yangi mavzuni tushuntirib berayotgan muallimamiz sinf sardorimizga bolalarni tinchlantirib turishini aytib, xonadan chiqib ketdilar. Yo'lakda ustozning kim bilandir gaplashgani eshitilib turardi. Biz uni yo'qlamani bilishga kelgan yetakchi bo'lsa kerak deb, jimgina o'tirdik. Lekin, ularning ovozi borgan sari ko'tarilib borardi. Birozdan keyin muallimamiz sinfga qaytib keldi. Ularning yonida bir yigit ham bor edi. Shunda ustozimiz vazminlik, sokinlik bilan «Bolalar», deya bizga murojaat qildi. Biz yozishdan to'xtab, ustozga qaradik. Muallimamiz ovozi qaltirab, gapida davom etdi.

A'LOCHI, AQLLI QIZ, LEKIN...

– Men sizlardan tez-tez pul so'rar ekanman. Shu to'g'rimi? Faqat to'g'risini aytinglar. Biz bir-birimizga hayron bo'lib qarab olib, bir ovozdan bu gap noto'g'ri ekanligini, faqatgina sinf xonamizni ta'mirlash yoki gazeta, jurnallarga obuna bo'lish uchungina pul yig'ishimizni, boshqa hech narsaga xarajat qilmasligimizni aytdik. Shundan so'ng, muallimamiz bilan kelgan yigit, tushunarli, deb bosh irg'ab qo'ydi. Bildikki, sinfdoshlarimizdan biri har kuni ota-onasidan pul so'rar, nimagaligini so'rashsa: «Ustozimiz aytdilar, hamma olib borishi kerak ekan», der ekan. Bu hol har kuni takrorlanavergach, ota-onasi o'qituvchidan norozi bo'lib, katta o'g'lini maktabga jo'natibdi. Bir-birimizga qarab, bu ishni kim qilganini bilolmadik. O'sha kuni uyga keta turib, soyabonim sinf xonasida qolib ketganini eslab, shu zahoti ortimga qaytdim. Yo'lakdan yurib borar ekanman, o'qituvchimizning kim-gadir: «Sendan qattiq xafaman», degan gaplari qulog'imga chalindi.



Sinf xonamizning eshigini 1-2 bor qoqdim. O'qituvchimiz shunday berilib gapirardiki, hatto eshik taqqillaganini ham payqashmadi. Eshikni sekin ochib qarasam, ne ko'z bilan ko'rayki, ustozimizning ro'parasida eng aqlli, a'lochi sinfdoshim Lobar o'tiribdi. Ular mening sinfga kirganimni ham payqamay qolishdi. Men sekingina soyabonimni oldim-da, xonadan chiqib ketdim. Oqila o'qituvchimiz bu ishni kim qilganini bil-sa-da, hammaning oldida uyaldirishni istamay, Lobar o'nidan turg'izmagani ekan...

Unutmang, aziz tengdoshlar, hayotimizni ibratli fazilatlar bilan bezash ham, unga dog' tushirish ham o'z qo'limizda!

Durdona MIRSATOVA,
Toshkent viloyati, Piskent tumandagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchisi

«KUNDALIK» TIZIMIDA baho va uy vazifalarini kuzatish mumkin


Shu kunlarda yurtimizda «Kundalik» elektron jurnali va kundaliklar tizimi sinovdan o'tkazilayotganidan xabaringiz bo'lsa kerak? Qiziq, u qanday tizim, qulayliklari nimadan iborat ekan-a, deya sizni o'ylantirayotgan savolga esa biz javob tayyorladik.

Ayni vaqtda «KUNDALIK» kompaniyasi maktabda elektron jurnal va kundaliklarni joriy etish bo'yicha

loyihani amalga oshirmoqda. Mazkur tizim onlayn tarzda o'qituvchilarning darslarini rejalashtirish, dars jadvallarini tuzish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va davomatini elektron jurnal va kundaliklarda qayd etib borishga xizmat qiladi. Eng e'tiborli jihati, endi siz ota-onangiz bilan birga 24 soat davomida

baholar va uy vazifalari haqidagi ma'lumotlarni kuzatib borish imkoniga ega bo'lasiz. Bunda siz himoyalangan

ijtimoiy tarmoq orqali muloqot qilishingiz hamda onlayn kutubxona va ta'limga oid mediaresurslardan foydalanishingiz mumkin. Albatta, buning uchun internetga ulangan kompyuter bo'lishi lozim. O'qituvchilar esa mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan versiyadan ham foydalanishlari mumkin.



Aziz o'quvchilar! Kundan-kunga ta'lim tizimida yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilayotgan, tashabbuslar ilgari surilayotgan ekan, siz ham bunday imkoniyatlar, sharoitlarga munosib bo'lishga, zamon bilan hamnafas yashashga intiling!

QIZLARXON

Lesson 18

CONJUNCTIONS



Although/ though/ even though/ in spite of/ despite bog'lovchilari «garchi, shunday bo'lsa ham, – ga qaramasdan» kabi ma'nolarni anglatadi.

«Although»dan keyin ega va kesim ishlatiladi:

e.g. *Although it rained a lot, We enjoyed our holiday.*

(Garchi yomg'ir ko'p yoqqan bo'lsa ham, biz ta'tildan rohatlandik)

Ba'zi hollarda «Although» o'rnida «though» ishlatilishi ham mumkin:

e.g. *I didn't get the job although I had all the necessary qualification.*

I didn't get the job though I had all the necessary qualification.

(Yetarlicha tajribam bo'lsa ham, ishga kirmadim)

«In spite of» va «despite»dan keyin ot, olmosh (this, that/what) yoki – fe'ning infinitive shakli ishlatiladi.

e.g. *In spite of the rain, we enjoyed our holiday.*

(Yomg'irga qaramay, biz ta'tildan rohatlandik)

«Even though» birikmasi «although»dan ko'ra kuchliroq ma'noni anglatadi:

e.g. *Even though I was really tired, I couldn't sleep.*

(Juda ham charchagan bo'lsam ham, uxlay olmadim)

Choose the correct conjunction

1. all of our careful plans, a lot of things went wrong.
2. I went to work the next day..... I was feeling unwell.
3. She accepted the job..... the salary, which was rather now.
4. I managed to get to sleep..... there was a lot of noise.

Mohira RAXMATOVA,
the teacher of № 274 in Yunusabad district, Tashkent region

THE FAITHFUL DOG (Reading time)

There is a legend of a woman who had a faithful dog. This dog was so faithful that the woman could leave her baby with it and go out to attend other matters. She always returned to find the child soundly asleep with the dog faithfully watching over him.

One day, something tragic happened.

The woman as usual, left the baby in the «hands» of this faithful dog and went out shopping. When she returned, she discovered a rather nasty scene. There was a total mess.

The baby's cot was dismantled. His nappies and clothes torn to shreds, with bloodstains all over the bedroom where she had left the child and the dog. Shocked, the woman wailed as she began looking for the baby.

Presently, she saw the faithful dog emerging from the under the bed. It was covered with blood and licking its mouth as if it had just finished a delicious meal. The woman went berserk and assumed that the dog had devoured her baby. Without much thought, she clubbed the dog to death.

But as she continued searching for the «remains» of her child, she beheld another scene.

Close to the bed was her baby who, although lying on the bare floor, was safe. And under the bed, the carcass of a jackal torn to pieces in what must have been a fierce battle between it and the dog which was now dead.

Then reality hit the woman, who now began to understand what took place in her absence. The dog fought to protect the baby from the ravenous jackal. It was too late for her now to make amends because in her impatience and anger, she had killed the faithful dog.

Question: How often have we misjudged people and torn them to shreds with harsh words and even with physical assault before we have had time to evaluate the situation? A little patience can drastically reduce major life long errors.



DONISHMAND BOBO ERTAKLARI

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi



ERKA SHOIR
(Ustoz Tursunboy Adashboyevga)

Belbog'i xo'p
Mahkam belda.
Erka shoir -
Ikki elda.
Suvday ichar
Qirg'iz tilin.
Bolalarning
Topgan dilin.
Shogirdlarga
O'ta g'amxo'r.
Qo'li ochiq,
Himmati zo'r.
Besh ketamiz
G'ayratiga.
Hech to'ymaysiz
Suhbatiga.
She'rlarini
Qazi deysiz.
Mazasini
Chaynab yeysiz.
Hozirjavob,
Yumorga boy.
Lof urganda
U Latifboy.
Ozor bermas
Chumoliga.
Tashlashadi
Haloliga.
Topganini
Ko'rar baham,
Ayamaydi
Tuqqanin ham.

Qiyinchilik
Ko'rgan tatib.
Kulsa, dildan
Kular qotib.
Chin beg'araz
Quvnoq inson.
Quvligi bor,
Rostlik mezon.
Piri-ustod
Qudrat Hikmat,
Hayotining
Yarmi hikmat.
Tushmas tildan
Zafar Diyor.
Sog'inasiz
Beixtiyor.
Birov aytmas
Yetmish yoshda
Bir oyog'i
Ko'hna O'shda.
Turar joyi
Hu - balandda.
Sanoqdamas,
Gap - talantda.
Shukronada
Zamonaga.
Befarq emas
Kaminaga.
So'zga hassos,
Zab ajoyib.
Ustozimiz -
Adashboyev.

Ravshan ISOQOV,
bolalar shoiri



MIRZO BOBUR ARMONI

Boshlab keldi bu yoqlarga oyoqlarim,
Qaytib ona tuprog'imga ketolmadim.
Andijonda qolmish do'st-u o'rtog'larim,
Men ularga boshqa hamdard bo'tolmadim,
Amudaryo, suvlarimgan o'tolmadim.

Qorlar erir va daryolar oqar toshib,
Ketgim kelar Ona yurtga tog'lar oshib.
Lekin dushman yo'lim to'sgay doim shoshib,
Ona diyor, quchog'ingga yetolmadim,
Amudaryo, suvlarimgan o'tolmadim.

Xadichabonu ISROILOVA,
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi
234-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Bir obod mamlakatda ana shunday qiziq-qiziq voqealar bo'lib turar ekan. Bu mamlakat shirin-shakar mevalarga, sharqirab oqadigan sersuv soylarga, dorivor g'iyohlarga, tengsiz yaylovlarga boy ekan. Odamlari ahil, muruvvatli, mehrlil, muhabbatli ekan. Bir-biriga yordam bermasa, ko'ngli tur'Imas ekan. Xullas, har jihatdan gurkirayotgan bu mamlakatni boshqa bir mamlakatning ochko'z, baxil podshosi bosib olmoqchi bo'lib, qo'shin tortib boribdi. Lekin xalqi ahil, mamlakatning alpqomat yigitlari hamjihat ekan. Qo'llariga qilich-u, yelkalariga nayza osib, yovuz yovning askarlarini quvib chiqaribdi. Ammo ochko'z podsho: «Bu yerni o'zimga qilib olmasam, boshqa bir podsho egallab olishi mumkin», deb o'ylab vazirlariga maslahat solibdi.

– Bir yalmog'iz kampir bor, deb eshitgan edim, – debdi vazirlaridan biri. – Sehrgarlikda unga teng keladigan yo'q. Chaqimchilik, g'iybatchilik degan ikkita quroli bor ekan. Qilichdan o'tkir, nayzadan tezkor ekan bu qurollari. Shu yalmog'izni ishga solsak qanday bo'larkin?

Bu fikr podshohga ma'qul bo'libdi. G'iybatchi, chaqimchi kampirni huzuriga chaqirib kelishibdi.

– Shartim bor, – debdi kampir ham ayyorlik qilib. – Men so'ragan boylikni bersang, istagan mamlakatningi senga olib beraman, – debdi.

Podsho rozi bo'libdi. Judugar kampir «hayyo-hu» deb yo'lga tushibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Nihoyat, o'sha obod, xalqi farovon mamlakatga yetib kelibdi. U yerda bolalar mollarini yaylovga haydab, o'zlari turli o'yinlar bilan mashg'ul ekanlar. Yugurishmi, sakrashmi, ko'z yumib chopishmi, hamma o'yinni bilishar ekan.

– Voy, bolalarim, – debdi o'zini bechorahol ko'rsatib kampir. – Sizlarning o'yinlaringizni kuzatib biram havasim keldi. Anavi Oqtosh mahallasi bor-ku, o'sha yerning bolalari birining ko'zi g'ilay, biri dadasining cho'ntagidan pul o'g'irlaydi, egriqo'l, degan gaplarni aytib sizlarni g'iybat qilyapti. Bittasi, singlisiga olib qo'ygan qaymoqni yalab qo'yadi, degan gaplarni aytasa bo'ladingiz?! Sizlarni ko'rib, bu gaplar yolg'on, deb o'yladim.

Uning gapidan bolalar sarosimaga tushib qolishibdi.

Kampir ularning ko'ngliga adovat urug'ini sepganidan xursand bo'lib darhol narigi mahallada o'ynayotgan bolalarga ro'para bo'libdi. Bu yerning bolalari ham har xil o'yinlar bilan

mashg'ul ekan. Yalmog'iz kampir bir dumalab chiroyli ayol qiyofasiga kiribdi-da, bolalar tomon boribdi.

– Voy, Xudoyim, qanday chiroyli bolalarni ko'rdim-a, sizlarni yaxshi, ahil deb eshitgandim. Chindanam shunday ekansizlar. Lekin sizlarning birga o'ynashlaringni, ota-onalaringga yordam berishlaringni ko'rolmaydigan bolalar ham bor ekan-a, – debdi birdan xomush tortib, so'ng narigi mahalla bolalariga aytgan gaplariga o'xshash, ba'zan

janjalga, mushtlashishga aylanib ketibdi. Mahallalarda qancha fuqaro bo'lsa, hammalari qo'lga qurol olib chiqishibdi.

O'sha zamonning tabiblari chaqimchilik, g'iybatchilikka qarshi dori ishlab chiqisholmagan ekan. O'sha zamondagi kasalliklarni virus ekanligini ham bilishmas ekan. G'iybat, chaqimchilik virusga aylanibdi-da, butun mamlakatni g'iybatga, chaqimchilikka, tuhmatga to'ldirib yuboribdi.

Chaqimchi kampir yana bir duma-lab go'zal qiz qiyofasiga kiribdi-da, ochko'z podshoning huzuriga g'olibona kirib kelibdi.

– Shahanshohim, – debdi qo'llarini ko'ksiga qo'yib. – Mamlakatni taslim bo'lish holatiga olib keldim. Ana endi qo'shin tortsangiz, bemalol yengasiz, – debdi. Haqiqatan ham, ochko'z podsho bir oy o'tar-o'tmas obod mamlakatni bosib olibdi. Qo'shin tortib borganda o'sha mamlakatning zabardast yigitlari yurtini himoyalash o'miga bir-biri bilan mushtlashayotgan ekan. Ochko'z podsho mamlakatni bemalol bo'yusundirib qaytibdi.

Keyin o'ylab boshlabdi:

– Bu chaqimchi, g'iybatchi kampir shu tarzda mening mamlakatimni ham boshqa bir mamlakatga

bo'yusundirib berishi mumkin-ku, deb o'ylab qolibdi. Shu payt yalmog'iz kampir «Va'da qilgan boyligingni ber», deb da'vo qilibdi. Podsho darrov o'zini qo'lga olibdi va debdi:

– Men o'z so'zimda turaman, bobomdan qolgan tillolarni o'ttiz metr chuqurlikka ko'mnganman, o'shalarni beraman senga. Lekin ularni o'zing kavlab olasan, – debdi. Tillolarning daragini eshitib kampir quvonib ketibdi, vujudidagi bor kuchini yig'ib, yerni kavlay boshlabdi. Yigirma metrcha qazigandan keyin yuqoriga qarab: «Boyluk ko'rinmayapti-ku», deb baqiribdi. – Yana ozroq qazish kerak, – deb javob berishibdi unga mulozimlar. Chuqurlik 21 metrga yetganda podsho chuqur boshiga borib: «O'zi kavlagan tuproqni o'zining boshiga tashlanglar», deya farmon beribdi. Kampirning dod-faryodi, iltijolariga hech kim quloq solmabdi. O'z boshiga o'zi yetibdi. «Chaqimchi, g'iybatchi kampirni yer yutibdi», degan gap butun mamlakatga ovoza bo'libdi. Shundan keyin chaqimchilik, g'iybatchilik kabi illatlar asta-sekin yurtdan ko'tarila boshlabdi.

Demak, «Chaqimchini yer yutadi», degan hikmat o'sha zamonlardan qolgan ekan.

(TAMOM.)

Qolganini kitob holda o'qiydiz



CHAQIMCHINING JAZOSI

(Ertak)

undan ham qo'polroq bo'htonlarni yog'diribdi. Shu payt kutilmaganda ikkala mahallaning bolalari:

– Sen – yolg'onchisan!

– Sen – tuhmatchisan! – deya bir-birlariga ta'na toshlarini otib, o'zaro mushtlashib ketishibdi. Yalmog'iz dumalab, keksa bir onaxon qiyofasiga kiribdi-da, mahallaning ellikboshisi huzuriga borib:

– Voy, otaxon, sizni ko'rolmaydigan odamlar ham bor ekan. Aytishlaricha, siz odamlardan juda ko'p soliq olayotgan emishsiz, – degan gaplarni aytib, ellikboshining qalbini vayron qilib ketibdi. Narigi mahallaning oqsoqoliga ro'baro' bo'lib:

– Voy, qanday pokiza insonsiz, yuzingizdan nur yog'ilib turibdi. Narigi mahallaning raisi g'irt tuhmatchi ekan, sizlar go'yo ularning suvini o'g'irlab ichayotgan emishsizlar. Birov to'y qilmoqchi bo'lsa, siz to'ychining yarim mahsulotini olib qo'yayotgan emishsiz, – deya kurakda turmaydigan gaplarni aytibdi. «Yolg'on bo'lsa, til tortmay o'lay», deb qasam ham ichibdi. Natijada, ikki mahalla oqsoqoli o'zining haqligini isbotlash uchun bahsga kirishibdi. Bahs bora-bora

ELCHINING TUHFASI

Yurtimizda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlikni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, farzandlarimiz o'rtasida o'tkazilayotgan turli aksiyalar, ko'rik-tanlovlar ular bilimni yanada mustahkamlab, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga, dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabiga Jazo'ir Xalq Demokratik Respublikasining yurtimizdagi favqulodda va muxtor elchisi janob Nassir Bushritx tashrif buyurdi. Aytish kerakki, o'quvchilar bilan bo'lgan samimiy uchrashuv mehmonda juda katta taassurot qoldirdi. Nassir janoblari suhbat davomida mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar tobora mustahkamlanib borayotgani, shuningdek, yurtimizda yosh avlodning chuqur bilim olishi, o'z iqtidor va salohiyatini to'la namoyon etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilganini mamnuniyat bilan tilga oldi. Uchrashuv yakunida diplomat maktab kutubxonasiga esdalik uchun kitoblar sovg'a qildi. Qolaversa, shu kuni ta'lim maskanida «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan «Bolangizga kitob sovg'a qiling» aksiyasi ham o'tkazildi.



Zohida TURSUNOVA

Keyingi yillarda yosh sportchilarimizning xalqaro maydonlarda qo'lga kiritayotgan olamshumul g'alabalari barchamizning ko'nglimizni tog'dek ko'tarib, qalbimizga g'urur va iftixor tuyg'ularini joy etmoqda.

OZOD YURTNING MUZAFFAR FARZANDLARI jahon chempionatidan medallar shodasi bilan qaytdi

Xabaringiz bo'lsa, yaqinda Turkiyaning Antalya shahrida shaxmat bo'yicha maktab o'quvchilari o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tdi. Quvonarlisi, ushbu dunyo birinchiligida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, yakunda yosh shaxmatchilarimiz 4 ta oltin, 1 tadan kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdi.



Jumladan, Humoyun Bekmurodov 9 yoshlilar, yosh grossmeysterimiz Javohir Sidorov 15 hamda reytingi eng yuqori shaxmatchimiz Nodirbek Yoqubboyev 17 yoshlilar o'rtasida birinchi o'rinni egallab, shohsu-

paning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi. Shuningdek, yana bir iste'dodli sportchimiz Shamsiddin Vohidov 17 yoshlilar orasida kumush medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Umida Omonova 13 yoshlilar o'rtasida bronza medali bilan taqdirlandi.

O'tgan hafta ushbu nufuzli musobaqada ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida keng jamoatchilik vakillari, sport muxlislari, ota-onalar hamda OAV vakillari tomonidan tantanali tarzda kutib olindi.


– Musobaqa juda murosasiz tarzda o'tdi, — deydi yosh shaxmatchimiz Xumoyun Begmurodov. – Ayniqsa, 8-turda turkiyalik Uygur Duruchay bilan bo'lgan qarama-qarshilikda juda qiynaldim. Shunday bo'lsa-da, jahon chempionligini qo'lga kiritib, ustozlarim, ota-onam ishonchini oqladim.

Shaxmatchilarimizga kelajakdagi boshqa yirik musobaqalarda ham za'far quchib, yurtimizdagi do'rug'ini butun dunyoga tanitishlariga tilakdoshimiz. **Sa'dullo IBROHIMJON o'g'li**

HAM TINGLAB, O'QIYMIZ

Qo'limizga yorqin ranglar bilan bezatilgan mo'jazgina kitobcha tushib qolsa, uni, albatta, varaqlab, zavq bilan tomosha qilamiz, o'qishga shoshilamiz. Agarda qo'lga olgan kitobingizdagi bir tugmani bossangiz-u, siz yoqtirgan ertak ifodali o'qib berila boshlasa-chi?! Zo'r-ku, shunday kitob bormi, deya qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a?

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida bolajonlarning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida O'zbekistonda ilk bor bolalar uchun o'zbek tilida «Aldarko'sa va boy», «Ikki do'st» nomli tinglab, o'qiladigan yangi ertak kitobcha nashrdan chiqdi. Kitobchadagi ertak qahramonlarining rangli tasvirlari sizni ertaklarning sehirli olamiga chorlaydi. G'oya mualliflari Kamoliddin Sagdiyev, Abror Akbarov, rassom Najot Jo'raboyev, aktyor Barot Hasanov tomonidan «Billur tasma» kinostudiyasida nashrga tayyorlangan xalq ertaklari asosidagi ushbu kitobcha kichkintoylarning mutolaaga bo'lgan mehrini oshirishi, shubhasiz.



«...Bir kuni Aldarko'sa yo'lda ketayotgan, uning oldidan boy chiqib qolibdi. U Aldarko'saga: «Hoy, Aldarko'sa, qani meni bir aldab ko'r-chi, qo'lingdan kelarmikin?» debdi».

Xo'sh, ertakning davomi sizni qiziqitirib qo'ydimi? «Ha», deysizmi? Unday bo'lsa, siz ota-onangiz bilan ham tinglab, ham o'qishingiz mumkin bo'lgan ushbu kitoblarni xarid qilishga shoshilng.

Nodira NAZAROVA

KITOBSEVAR QUVONCH ULASHDI

Maktabimiz kutubxonasi yangi kitoblar bilan boyidi.

Bu gal maktabimizga ushbu maktabda ta'lim olgan taniqli yozuvchi va publitsist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharrir o'rinbosari Ashurali Jo'rayev o'zi o'qigan ushbu maktabga kitoblar va «Jahon adabiyoti» jurnalining 20 yillik taxlamlarini sovg'a qildi.

– Ashurali Jo'rayev oldin ham maktabimizga o'z shaxsiy kutubxonasidan kitoblar sovg'a qilgan edi, — deydi maktab direktori Narzulla Rahmonov. – Hozirgacha u kishining maktab kutubxonasiga topshirgan kitoblari soni 500 tadan oshib ketdi. Shuningdek, kutubxonada yozuvchining o'zi yozgan kitoblari bo'yicha maxsus burchak tashkil etildi. Bugungi tadbir yoshlar tarbiyasida, yosh ijodkorlarning safi kengayishida katta ahamiyatga ega.

Tadbirda 8-«V» sinf o'quvchisi Marjona Bo'ronova, 9-«A» sinf o'quvchisi Farrux Hamroyev, 11-«A» sinf o'quvchisi Munisa Jumanovalar o'z ijod namunalari bilan o'qib berdilar. Shu kuni maktabning 10 nafar o'quvchisi «Tong yulduzi» gazetasiga ikkinchi yarim yillik uchun obuna bo'ldilar.

Xurshida JO'RAYEVA,

Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi 14-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BO'LAMIZ SHOIR, OLIM...

Yaqinda o'quv dargohimizda «Maktabimga kitob sovg'a qilaman» shiori ostida marafon bo'lib o'tdi.

Bu tadbirda barchamiz faol ishtirok etganimiz bois, nurxonamiz yangi asarlarga boyib ketdi. Hatto, sobiq direktorimiz Sodik aka Zokirov ham ta'lim maskanimizga tashrif buyurganlaridan quvonib ketdik. Ular bizga turli adabiyotlarni ulashar ekanlar, kitob haqida maroqli suhbat ham olib bordilar. Biz sinfdoshlarimiz bilan kutubxonamizga O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani va «Temur tuzuklari» nomli kitoblarni tuhfa etdik. Marafondan so'ng kutubxonachi opamiz Muhabbat opa G'afurova o'quvchilarni barcha yangi asarlar bilan tanishtirdilar. Men bundan juda quvonib ketdim. Chunki bu kitoblar orasida men sevib o'qiydigan va hali o'qimagan adabiyotlarim ham bor edi. **Bizning kutubxonamiz, Kitoblarga limmo-lim. Ularni o'qib bir kun, Bo'lamiz shoir, olim.**

Dilnoza TURSUNBOYEVA, Toshkent tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi

**ZULFIYA
BUVI**

TOPISHMOQLARI TURKUMIDAN

Sochlarini silaydi,
Yuzlarindan o'padi.
Olma qoqar bog'larda,
Uy eshigin yopadi.

Juda ham to'polonchi,
Do'ppingni olib qochar.
Oynadan kirib asta,
Daftar, kitobni sochar.

Hushtak chalar ko'chada,
Narvonsiz tomga chiqar.
Aytilmagan joyga ham,
So'ramay burnin tiqar.

Qo'lidan tutib bo'lmas,
U nimaga timsoldir?
Qiynamay ayta qolay,
Uning oti **SHAMOL**dir.



Tozaiyki sevar u,
Chang-to'zonni quvadi.
Dalalarni yashnatar,
Daraxtlarni yuvadi.

Jon beradi bog'larga,
Rang beradi tog'larga.
Kumush sochar, dur sochar,
Gullarga, chorbog'larga.

Tom boshida yurar u,
Devorlarda chopadi.
Bitta nomi – baraka,
Nima u, kim topadi?

Uchib yurgan gul ko'rdim,
Gullarin xil-xil ko'rdim.
Gul husniga mahliyo,
Beg'ubor ko'ngil ko'rdim.

Liboslari chiroyli,
Farishtami yo malak?
Bir kungina yashaydi,
Uning nomi – **KAPALAK**.

U yelkama osildi,
Shamollasam og'rir jon.
Undan hamma qochadi,
Ha, u **YOMG'IR, YOMG'IR**jon.

Zulfiya **MO'MINOVA**

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«ONA VATAN FIDOYLARI»

TOPQIRLIK MASHQLARI

Aylanma krossvord: Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida:

1. Ikkinchi jahon urushi qahramonlaridan biri, birinchi o'zbek generali. 2. Mardligi, jasorati bilan tanilgan kishi. 3. O'zbekiston xalq shoiri, «Kafansiz ko'milganlar» avtobiografik qissasi, «Tirik ruhlar» roman-xronikasi asarlari muallifi. 4. Keksa yoshdagi hurmatli inson. 5. Xotirada qolgan taassurot. 6. Ezgu maqsadga erishish yo'lidagi bardosh, chidam. 7. Vatan va xalq oldidagi burchni ado etishdagi mardona xizmatlari uchun beriladigan O'zbekiston Respublikasining oliy nishoni. 8. O'zbekiston Respublikasidagi tabarruk yoshdagi faxriy fuqarolar jamg'armasi. 9. Xotira mazmunidagi she'riy asar janri. 10. O'zbek ma'rifatparvar shoiri. 11. «Ikki eshik orasi» romani muallifi, atoqli o'zbek adibi. 12. Ma'lum qonun-qoidalar asosida beriladigan yengillik. 13. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri. 14. Xalqaro mukoforlarga sazovor bo'lgan ustoz, e'zozli o'zbek shoirasi. 15. Fashizmga qarshi urush qatnashchisi, shoir, jurnalist. 16. Atoqli o'zbek huquqshunos olimasi. 17. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, andijonlik shoira. 18. Avlodlar uchun vatanparvarlik timsollaridan biriga aylangan, massagetlar qabilasining jaso-ratkor malikasi haqidagi afsona.

MUAMMONOMA: Kalit so'zlar:

1. O'tmishni o'rganuvchi fan – 4, 1, 3, 2, 8.
2. Erkin, hur – 9, 5, 9, 7.
3. Vaqt o'lchovi birligi – 12, 2, 10.
4. Yil fasli – 6, 2, 11.

Kalit so'zlari javoblaridagi harflar orqali shaklning o'rta qismidagi harflarda yashiringan muammonomani hal etish bilan ibratli so'zlarni bilib oling.

Tuzuvchi: Foziljon **ORIPOV**

